KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinova	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinova	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI.....	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIVAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIVAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI.....	1686
Mirzaxalikhov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I - MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHLATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўгли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кошанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: HORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ.....	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Bahromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	



UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: navruzbek@dtpi.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada uy biznesi faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda uy sharoitida tadbirkorlikni boshlash va barqaror rivojlantirishga qaratilgan bosqichma-bosqich universal yondashuv taklif etiladi. Unda g'oya aniqlash, bozor talabi va maqsadli auditoriyani belgilash, raqobatchilarni tahlil qilish, qiymat taklifini shakllantirish, moliyaviy-tashkiliy mexanizmlarni yo'lga qo'yish hamda risklarni boshqarish va SWOT tahlil asosida strategik qarorlar qabul qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari uy biznesi faoliyatini samarali tashkil etish va barqaror iqtisodiy natijalarga erishishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: 15 bosqichli universal model, uy biznesi, tadbirkorlik, kichik biznes, biznes mexanizmlari, strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, risk menejmentin va SWOT tahlil.

Abstract. This scientific article analyzes the mechanisms for organizing and developing home-based businesses from both theoretical and practical perspectives. The study proposes a step-by-step universal approach aimed at launching and ensuring the sustainable development of entrepreneurial activities in a home environment. It addresses issues such as idea generation, market demand assessment, target audience identification, competitor analysis, value proposition development, implementation of financial and organizational mechanisms, as well as strategic decision-making based on risk management and SWOT analysis. The research results provide scientific and practical recommendations for the effective organization of home-based businesses and the achievement of sustainable economic outcomes.

Key words: 15 stage universal model, home-based business, entrepreneurship, small business, business mechanisms, strategic planning, financial management, risk management and SWOT analysis.

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются механизмы организации и развития домашнего бизнеса с теоретической и практической точек зрения. В исследовании предлагается поэтапный универсальный подход к запуску и устойчивому развитию предпринимательской деятельности в домашних условиях. Раскрываются вопросы формирования бизнес-идеи, определения рыночного спроса и целевой аудитории, анализа конкурентов, разработки ценностного предложения, внедрения финансово-организационных механизмов, а также принятия стратегических решений на основе управления рисками и SWOT-анализа. Результаты исследования содержат научно-практические рекомендации, направленные на эффективную организацию домашнего бизнеса и достижение устойчивых экономических результатов.

Ключевые слова: 15 этапная универсальная модель, домашний бизнес, предпринимательство, малый бизнес, бизнес-механизмы, стратегическое планирование, финансовое управление, риск-менеджмент и SWOT-анализ.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida tadbirkorlik faoliyatining moslashuvchan shakllarini rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uy sharoitida tashkil etiladigan biznes faoliyati kichik boshlang'ich kapital talab qilishi, tezkor moslashuvchanligi va keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bois, uy biznesini ilmiy asoslangan mexanizmlar asosida samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda kichik va oilaviy biznesni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmogda. Bu jarayon uy biznesi subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, uy biznesi faoliyatini yanada barqaror va samarali rivojlantirish uchun strategik rejalashtirishni kuchaytirish, bozorni chuqur tahlil qilish hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarni ilmiy yondashuv asosida tizimlashtirish uy biznesining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.



Mazkur maqolaning asosiy maqsadi uy biznesi faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish hamda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan 15 bosqichli universal model orqali uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy biznesi va oilaviy tadbirkorlik masalalari iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim va istiqbolli shakli sifatida keng yoritilgan. Xalqaro hamda milliy tadqiqotlarda uy biznesi bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida talqin etiladi. Ko'plab ilmiy ishlarda u kam kapital talab qiluvchi, moslashuvchan hamda oilaviy resurslarga tayangan holda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakli sifatida ijobiy baholanadi.

Xorijiy adabiyotlarda oilaviy biznesning boshqaruv jarayonlaridagi soddalik, qarorlar qabul qilish tezligi va shaxsiy mas'uliyatning yuqoriligi kabi ustun jihatlari alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, strategik rejalashtirish va institutsional boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etiladi. Ayniqsa, moliyaviy intizomni kuchaytirish va bozorni chuqur tahlil qilish uy bizneslarining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda uy biznesi oilaviy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish shakllari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilib, uning ayollar va yoshlar bandligini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari uy biznesi faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda uy biznesini g'oya shakllanishidan boshlab strategik boshqaruv bosqichigacha qamrab oluvchi yagona, tizimli va bosqichma-bosqich universal modelni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'lib, uy biznesini tashkil etish va rivojlantirishning 15 bosqichli universal strategiyasini taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda uy biznesi va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda chuqur o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va amaliy tahlil uyg'unligiga asoslanib, mavjud ilmiy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish va asosli amaliy xulosalar ishlab chiqishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini tadbirkorlik nazariyasi, kichik va oilaviy biznes konsepsiyalari, strategik rejalashtirish hamda moliyaviy boshqaruvga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu jarayonda ilmiy abstraksiya, umumlashtirish, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlaridan samarali foydalanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali uy biznesining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari aniqlab berildi.

Tadqiqotning amaliy qismida statistik, taqqoslama hamda SWOT tahlil metodlari qo'llanildi. Ochiq statistik ma'lumotlar asosida uy biznesining hozirgi holati baholanib, uning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlari, mavjud imkoniyatlari hamda tashqi omillar ta'siri aniqlandi. Tadqiqot natijasida konseptual modellashtirish asosida ishlab chiqilgan 15 bosqichli universal model uy biznesini samarali tashkil etish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy biznesi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kam kapital talab qiluvchi, yuqori moslashuvchanlikka ega va keng qatlamlar uchun ochiq bo'lgan tadbirkorlik shakli sifatida bandlikni oshirish hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilishda muhim o'rin egallaydi. Uning barqaror va samarali rivojlanishi tasodifiy qarorlarga emas, balki izchil, puxta rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich yondashuvga asoslanishi lozim. Ushbu jarayon biznes g'oyani aniqlash, bozorda mavjud muammo va ehtiyojlarni belgilash hamda real talabni baholashdan boshlanadi. Bozor validatsiyasi g'oyaning amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilish imkoniyatlarini aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqsadli auditoriyani aniq belgilash hamda raqobat muhitini chuqur tahlil qilish uy biznesining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omillar hisoblanadi.

Uy biznesini tashkil etishda moliyaviy va operatsion mexanizmlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Minimal boshlang'ich kapital asosan majburiy xarajatlar va qisqa muddatli operatsion ehtiyojlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu risklarni nazorat ostida ushlab turishga imkon yaratadi. Daromad va xarajatlarni aniq hisobga olish, shaxsiy va biznes mablag'larini alohida yuritish moliyaviy intizomni mustahkamlaydi. Operatsion barqarorlik esa resurslar va xomashyo manbalarini oqilona tanlash, muqobil



yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda soddalashtirilgan operatsion jarayonlar orqali ta'minlanadi. Narx siyosati mahsulot tannarxi, bozor sharoiti va iste'molchi tomonidan qabul qilinadigan qiymat o'rtasidagi muvozanatga asoslanishi lozim.

Uy biznesining uzoq muddatli va barqaror rivoji strategik rejalashtirish hamda mijozlar bilan samarali hamkorlik tizimiga bevosita bog'liqdir. Doimiy mijozlar bazasini shakllantirish marketing xarajatlarini optimallashtirishga va qayta sotuv hajmini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlanish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi moliyaviy va boshqaruv barqarorligini saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy, bozor va operatsion risklarni oldindan aniqlash hamda SWOT tahlil asosida strategik qarorlar qabul qilish uy biznesining raqobatbardoshligini oshirish va uning barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Uy biznesining kuchli va zaif tomonlari (SWOT tahlil asosida)

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Boshlang'ich kapitalning kamligi – uy biznesini yo'lga qo'yish katta moliyaviy resurslarni talab etmaydi	Moliyaviy resurslarning cheklanganligi – kengayish va modernizatsiya imkoniyatlari tor
Moslashuvchanlik va tezkorlik – bozor talabiga tez moslashish imkoniyati mavjud	Marketing va brending tajribasining yetishmasligi – mahsulot yoki xizmat bozorda yetarli darajada tanilmasligi mumkin
Xarajatlarning nisbatan pastligi – ijara, kommunal va transport xarajatlari minimal darajada bo'ladi	Ishlab chiqarish hajmining kichikligi – yirik buyurtmalarni bajarishda qiyinchiliklar yuzaga keladi
Oilaviy mehnat resurslaridan foydalanish – ishchi kuchi xarajatlari kamayadi	Kasbiy malakaning yetarli emasligi – menejment, moliya va marketing bo'yicha bilimlar kamligi

2-jadval. Uy biznesining imkoniyatlari va tahdidlari (SWOT tahlil asosida)

Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari – imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar mavjudligi	Bozor raqobatining kuchayishi – yirik kompaniyalar va import mahsulotlar bosimi
Raqamli savdoning rivojlanishi – ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali savdo qilish imkoniyati	Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi – ishlab chiqarish tannarxining oshishi
Ichki bozor talabining ortishi – mahalliy va qo'l mehnati mahsulotlariga qiziqish kuchayib bormoqda	Iqtisodiy beqarorlik – inflyatsiya va valyuta kurslarining tebranishi
Ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari – yangi biznes tashabbuslarini rag'batlantirish	Huquqiy-me'yoriy o'zgarishlar – soliqlar va talablarning keskin o'zgarishi

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni¹

Viloyatlar kesimi bo'yicha	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	524,8	521,6	528,9	547,6	563,9
Andijon viloyati	989,9	1020	1040	1071,9	1094,4
Buxoro viloyati	590,5	576,8	579,6	598,4	601,5
Jizzax viloyati	418,7	434,1	422,6	427,1	434,9
Qashqadaryo viloyati	914,1	943,7	943,8	952,4	1020,1
Navoiy viloyati	207,4	214,5	209,7	222,2	226,1
Namangan viloyati	888,4	907,7	891,9	913,8	949,5
Samarqand viloyati	1158,3	1174,7	1197,8	1219,5	1236,1
Surxondaryo viloyati	770,3	785,5	773,6	776,1	792,3
Sirdaryo viloyati	247,5	248,7	244,1	243	258,3
Toshkent viloyati	833,4	853,3	843,3	872	889,5
Farg'ona viloyati	1136,3	1164,7	1190,4	1230,1	1258,3
Xorazm viloyati	567,9	574,3	579,3	609,8	621
Toshkent shahri	618,2	661	686,1	689,4	682,8
JAMI	9865,7	10080,6	10131,1	10373,3	10628,7

1 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



1-jadval ma'lumotlari 2020-2024-yillarda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni umumiy hisobda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi. Jumladan, 2020-yilda kichik tadbirkorlik sohasida jami 9 865,7 ming kishi band bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 10 628,7 ming kishiga yetgan. Natijada, besh yil davomida bandlik hajmi qariyb 7,7 foizga oshgan bo'lib, bu kichik biznes va tadbirkorlik sohasining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida bandlik darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Samarqand, Farg'ona, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida qayd etilgan. Bu holat mazkur hududlarda aholi zichligining yuqoriligi, shuningdek, uy biznesi va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlanganligi bilan izohlanadi. Xususan, Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2020-yildagi 1 158,3 ming kishidan 2024-yilda 1 236,1 ming kishiga yetib, barqaror o'sish namoyon bo'lgan.

Ayrim hududlarda, jumladan Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida bandlik darajasi nisbatan pastroq bo'lishiga qaramay, ushbu hududlarda ham umumiy ijobiy o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan. 2022-yilda ayrim viloyatlarda kuzatilgan qisqa muddatli tebranishlar esa pandemiyadan keyingi iqtisodiy moslashuv jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, keyingi yillarda bandlik ko'rsatkichlarining tiklanishi ushbu moslashuv jarayonlarining samarali kechayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari kichik tadbirkorlik, jumladan uy biznesi va oilaviy korxonalar mamlakatda bandlikni oshirishda muhim rol o'ynayotganini hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yildan-yilga ortib borayotganini tasdiqlaydi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika mehnat bozori ko'rsatkichlari quyidagicha shakllangan:

- mehnat resurslari soni – 19,5 mln kishi;
- mehnat bilan band bo'lgan aholi soni – 13,8 mln kishi;
- bandlik darajasi – 68,0 foiz;
- ishsizlar soni – 1,3 mln kishi;
- ishsizlik darajasi – 8,6 foiz;
- iqtisodiy faol bo'lmagan aholi soni – 4,3 mln kishi.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakat mehnat bozorida bandlik darajasi nisbatan yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud mehnat salohiyatidan yanada samarali foydalanish, ishsiz hamda iqtisodiy faol bo'lmagan aholini mehnat jarayonlariga keng jalb etish uchun uy biznesi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish katta imkoniyatlarga ega ekanini asoslaydi. Bu esa qo'shimcha bandlik yaratish, daromad manbalarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, uy biznesi faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish zamonaviy iqtisodiy sharoitda aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida uy biznesini rivojlantirishga oid mavjud nazariy yondashuvlar tizimli tahlil qilinib, ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari aniqlandi hamda ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Mazkur maqolada shakllantirilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar uy biznesi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga mas'ul tashkilotlar, shuningdek, iqtisodiyot va menejment yo'nalishida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari kelgusida uy biznesini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, strategiyalar va metodik qo'llanmalarni takomillashtirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Uy biznesini rivojlantirish uchun "ZiyoMax-HB" raqamli platformasini joriy etish:

Uy va oilaviy biznesni noldan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan "ZiyoMax-HB" raqamli platformasini (mobil ilova shaklida) ishlab chiqish va joriy etish taklif etiladi. Ushbu platforma 15 bosqichli universal strategiya asosida faoliyat yuritib, moliyaviy rejalashtirish, soddalashtirilgan debet-kredit hisobi, risk va SWOT tahlillarni foydalanuvchilar uchun oddiy va tushunarli shaklda taqdim etadi. Ilova tarkibida uy biznesi simulyatori, raqamli marketing bo'yicha mini-kurslar hamda "YATTmi yoki oilaviy korxonami?" kabi tanlovga yo'naltirilgan test modullarini joriy etish aholining tadbirkorlik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Uy biznesi orqali bandlikni kengaytirish va moliyaviy intizomni mustahkamlash:

Uy biznesi imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ishsiz va iqtisodiy faol bo'lmagan aholini bandlikka jalb etish maqsadida qisqa muddatli onlayn kurslar va oilaviy biznes start-paketlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, YATT va oilaviy korxonalar uchun bir sahifalik moliyaviy reja hamda soddalashtirilgan moliyaviy hisob standartlarini ishlab chiqish va ularni "ZiyoMax-HB" platformasi orqali bepul taqdim etish moliyaviy intizomni kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirish imkonini beradi.



3. Uy biznesi ekotizimini shakllantirish va institutsional rivojlanishni ta'minlash:

“ZiyoMax-HB” platformasi asosida uy biznesini rivojlantirishga qaratilgan milliy ekotizimni shakllantirish taklif etiladi. Ushbu ekotizim maslahat, ta'lim, hisob-kitob, monitoring hamda risklarni erta aniqlash va ogohlantirish funksiyalarini o'z ichiga oladi. Hududlar kesimida qaysi uy biznesi yo'nalishlari yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatuvchi tavsiyalar blokini ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida “Uy biznesi va oilaviy tadbirkorlik” fanini joriy etish ushbu jarayonning institutsional asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar, xususan, “ZiyoMax-HB” raqamli platformasi uy va oilaviy biznesni rivojlantirishda ilmiy asoslangan, amaliy va universal yechim sifatida xizmat qilishi hamda aholining iqtisodiy faolligini oshirish, bandlikni kengaytirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.
2. Porter, M. E. (2008). Competitive strategy: Techniques for analyzing industries and competitors. Free Press.
3. Drucker, P. F. (2007). Innovation and entrepreneurship. Harper Business.
4. Hisrich, R. D., Peters, M. P., & Shepherd, D. A. (2018). Entrepreneurship (10th ed.). McGraw-Hill Education.
5. Greene, W. H. (2012). Econometric analysis (7th ed.). Pearson Education.
6. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2015). Basic econometrics (5th ed.). McGraw-Hill Education.
7. Armstrong, M. (2014). A handbook of human resource management practice (13th ed.). Kogan Page.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik statistikasi. <https://stat.uz>
9. World Bank. (2024). Small and medium enterprises (SMEs): Overview. <https://www.worldbank.org>
10. OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). SME and entrepreneurship policy. <https://www.oecd.org>
11. International Labour Organization. (2023). Home-based work and family enterprises. <https://www.ilo.org>
12. Statista. (2024). Small business market data. <https://www.statista.com>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
